

“Yangi hayot uchun, yangi O‘zbekiston uchun”



Quvonarlisi, Andijon shahridan sayohat qilish uchun vohamizga kelgan 25 nafar faol nuroniylarning ham ishtirok etganligi ushbu tadbirga o‘zgacha shukuh baxsh etdi.

Turli millat va turli avlod vakillarini mushtarak maqsad yo‘lida bir davraga jam qilgan tadbir doirasida so‘zga chiqqan viloyat “Nuroniylar” jamg‘armasi raisi Orziqul Soatov, Andijon shahar “Nuroniylar” jamg‘armasi raisi Sodiqjon Yusupov, Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limi rahbari N.Rahmatullayeva, Surxondaryo viloyati hokimligi huzuridagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlari malakasini oshirish o‘quv markazi direktori R.Raximova, Termiz harbiy prokurori G‘.Rahmonov, “Yosh chegarachilar” harbiy akademik litseyi direktori, fan doktori M.Norqobilov, yosh iste’dod sohibi Sh.Suyunova tomonidan mamlakatimizda inson va uning qadr-qimmatini yuksaltirish, xalqimizning orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish ustuvor vazifaga aylangani, xalqimizning o‘zaro hamjihatlikda shodu xurram yashayotganligi ta’kidlandi.

